



O'ZBEKISTONDA TURISTIK XIZMATLAR BOZORINI RIVOJLANTIRISH VA UNING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

Jabborov G'ulom

Guliston davlat universiteti

ORCID: 0009-0004-3015-0605

gulomjabborov1501@gmail.com

Annotatsiya. Jahonda turizm sohasini rivojlantirish, uning makroiqtisodiy ko'rsatkichlaridagi ulushini oshirish, mamlakat hududlarida aholini yangi ish o'rinlari bilan ta'minlash maqsadida turistik-rekreatsiya ob'ektlaridan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirishga asos yaratadigan ilmiy tadqiqotlarga ehtiyoj ortib bormoqda. Bu borasida yangi uslubiy yondashuvlarni ishlab chiqish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Keywords: turizm, turistik mahsulotlar, raqobatbardosh, turistik hududlar, turistik-rekreatsiya.

ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ РЫНКА ТУРИСТИЧЕСКИХ УСЛУГ В УЗБЕКИСТАНЕ И ПОВЫШЕНИЯ ЕГО КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ

Джабборов Гулом

Гулистанский государственный университет

Аннотация. В мире растет потребность в научных исследованиях, которые создадут основу для совершенствования механизмов использования туристических и рекреационных объектов в целях развития туристического сектора, увеличения его доли в макроэкономических показателях и обеспечения населения новыми рабочими местами в регионах страны. В этой связи вопросы разработки новых методологических подходов приобретают неотложное значение.

Ключевые слова: туризм, туристические продукты, конкурентоспособность, туристические регионы, туризм и отдых.

PRIORITY DIRECTIONS FOR DEVELOPING THE TOURIST SERVICES MARKET IN UZBEKISTAN AND INCREASING ITS COMPETITIVENESS

Jabborov Gulom

Gulistan State University

Abstract. In the world, there is a growing need for scientific research that will create a basis for improving the mechanisms for using tourist and recreational facilities in order to develop the tourism sector, increase its share in macroeconomic indicators, and provide the population with new jobs in the regions of the country. In this regard, the issues of developing new methodological approaches are of urgent importance.

Keywords: tourism, tourist products, competitiveness, tourist regions, tourist and recreation.

Kirish.

Hozirgi kunda turizmni rivojlantirish, sohaga investitsiyalar jalb etish, kadrlar salohiyatini oshirish dolzarb vazifa hisobla-nadi. Respublikada turizm ko'pincha qadimiy shaharlar, tarixiy-madaniy yodgorliklar doirasida cheklanib qolmoqda. Mamlakatning betakror tabiati, milliy qo'riqxonalari, tog'li hududlarida turizmni rivojlantirish uchun katta salohiyat mavjud. Ayniqsa, tibbiyot turizmi, ziyorat turizmi va ekoturizmni rivojlantirish nafaqat iqtisodiyot, balki ijtimoiy sohalar rivojiga ham katta turtki beradi.

Bugungi kunda jahonda turizm sohasini yanada rivojlantirish, uning makroiqtisodiy ko'rsatkichlaridagi ulushini oshirish, mamlakat hududlarida aholini yangi ish o'rinlari bilan ta'minlash maqsadida turistik-rekreatsiya ob'ektlaridan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirishga asos yaratadigan ilmiy tadqiqotlarga ehtiyoj ortib bormoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda turizm tarmoqlarida xizmat ko'rsatish sohasidan samarali foydalanishning hozirgi holati, muammolari va istiqbollari tizimli tahlil qilindi. Ishda iqtisodiy tahlil, statistik ma'lumotlarni solishtirish, kuzatish va ekspert baholash usullaridan foydalanildi. Shuningdek, mahalliy va xorijiy tajribalar o'rganilib, ularning o'ziga xos jihatlari tahlil asosida umumlashtirildi. Tadqiqot natijalari turizm xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish va samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar sharhi.

Iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish va modernizatsiya qilish sharoitida turizm sohasini rivojlantirish hamda uning institutsional mexanizmlarini takomillashtirish masalalari zamonaviy iqtisodiyot fani oldida turgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, bugungi kunda turizm nafaqat iqtisodiy foyda keltiruvchi tarmoq, balki zamonaviy jamiyatning integral qismi bo'lib, uning iqtisodiy manfaatlari ijtimoiy taraqqiyot strategiyalari bilan uyg'un holda rivojlantirilishi lozim. Davlatimiz rahbarining asarlarida turizmni diversifikatsiya qilish va xizmatlar eksportini oshirish orqali aholi farovonligini yuksaltirish masalalariga alohida urg'u berilgan. Turizm iqtisodiyotining nazariy va amaliy jihatlari tadqiq etishda bir qator xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy izlanishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Turizm menejmenti, marketingi va iqtisodiy samaradorligini tadqiq etishda Kabushkin (2004), Birjakov (2008), Gulyayev (2003), Ilna (2000), Kozыrev va Yankevich (2001) kabi olimlar turizmni yaxlit bir iqtisodiy tizim sifatida tahlil qilganlar. Shuningdek, g'arb iqtisodiyot maktabi vakillaridan Brassington, Pettit (2006), Wright, Crimp (2000), Sharpely va Harrisonlarning (2004) tadqiqotlarida turizm bozorining kon'yunkturasi, iste'molchilar xulq-atvori va barqaror turizmni rivojlantirish modellariga keng o'rin berilgan.

Respublikamizda turizm sohasining o'ziga xos xususiyatlari va iqtisodiy islohotlar sharoitidagi istiqbollari Aliyeva (2010), Salimova (2012), Irmatov (2014), Mirzayev va Norchayev (2016) kabi iqtisodchi olimlar tomonidan keng o'rganilgan. Ularning ilmiy ishlarida turizm infratuzilmasini yaxshilash, milliy turistik mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirish va sohaning makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'sirini baholash kabi masalalar fundamental tahlil qilingan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

2019-2025 yillar uchun "Turizmni rivojlantirish konsepsiyasi" bo'yicha olti yil ichida turizmning O'zbekiston yalpi ichki mahsulotidagi ulushini - 2,3 foizdan 5 foizga, xorijlik sayyohlar sonini esa 9-10 million nafarga, jumladan uzoq xorijiy mamlakatlardan keluvchi turistlar sonini 2 milliongacha oshirish ko'zda tutilgan. Shuningdek, turizm eksporti hajmini 950 million dollardan 2,2 milliard dollargacha oshirish kutilmoqda. Joylashuv vositalari sonini esa 850 tadan 3000 tagacha chiqarish rejalashtirilgan. Turoperatorlar soni ham 860 tadan deyarli ikki baravarga oshishi ko'zda tutilgan.

Qulay logistikani o'z ichiga olgan zamonaviy transport infratuzilmasini yo'lga qo'yishga doir ishlar olib borilmoqda. Bu havo, temir yo'l, avtomobil va suv transporti. Markaziy Osiyoda chegaralarni kesib o'tishda qulay sharoitlar yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Taklif qilinayotgan turistik mahsulotlar ko'lamini kengaytirish va ularni diversifikatsiyalashni nazarda tutadi. Birinchi navbatda bu yo'nalishda ziyorat turizmi, ekoturizm, agroturizm, etnoturizm, sport turizmi, MICE-turizmga e'tibor qaratiladi.

Barcha sohalarda bo'lgani kabi turizm ham hal qilinishi kerak bo'lgan qator muammo va kamchiliklar mavjud, albatta. Logistika, infratuzilma, mehmonxona va tezyurar poezdlarda joy yetishmasligi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, turizm tarmog'i kadrlari salohiyatini oshirish bilan bog'liq qator muammolar yechimi izlanmoqda.

Respublikada "Buyuk Ipak yo'li" bo'ylab xalqaro turizmni rivojlantirishda tarixiy-madaniy obidalar bilan bir qatorda, dam olish, g'ordiq chiqarish uchun xizmat qiladigan turistik ob'ektlarning ham mavjudligi muhim ahamiyatga egadir. Bunga misol qilib har yili o'n millionlab turistlarni o'ziga jalb qilib, muvaffaqiyat bilan ishlayotgan Yevropadagi parklarini olishimiz mumkin. Bular ichida Parij "Disneylend"ning faoliyatini tahlil qilganimizda har yili bu yerda o'rtacha 15 mln. ga yaqin turistlar tashrif buyurishadi. O'zbekistonda ham shu kabi parklar sonini ko'paytirish imkoniyati yetarli hisoblanadi. Toshkentda Disneylend va Akvaparklar faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Bugungi kunda jaxon iqtisodiyotida xalqaro turizmdan tushayotgan yillik daromad 1 trillion AQSh dollaridan oshadi. O'tgan yilgi natijalarga asoslanadigan bo'lsak, Amerika Qo'shma Shtatlari (128,6 mlrd.), Ispaniya (55,9 mlrd.), Fransiya (53,7 mlrd.), Xitoy (50 mlrd.), Italiya (41,2 mlrd.) sayyohlikdan eng ko'p daromad olgan mamlakatdir. Dunyo miqyosida ish bilan band aholining 8 foizi ushbu sohada mehnat qilayapti.

Alohida mamlakatlarning turizm sohasiga qilgan xarajatlariga e'tibor bersak, asosan rivojlanayotgan mamlakatlar hissasiga ko'proq xarajatlar to'g'ri keladi. Bu holat rivojlanayotgan mamlakatlarning turizm sohasini rivojlantirishga katta e'tibor berayotganligi bilan tavsiflanadi. Butun Jahon turistik tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra oxirgi yillarda turizm sohasiga dunyo bo'yicha eng ko'p xarajat qilgan mamlakat bu Xitoydir. Xitoy davlati 128,6 milliard dollar sarf qilgan. Bu esa to'rtinchi o'rindagi Rossiya Federatsiyasining sarf xarajatlaridan deyarli 2,5 barobar ko'pligidan dadolat beradi. Keyingi o'rinlarda esa, 2014 yilda 86,2 mlrd. Germaniya – 85,9 mlrd. Rossiya – 53,5 mlrd Buyuk Britaniya – 52,6 mlrd. Fransiya – 42,4 mlrd. Kanada – 35,2 mlrd. Avstraliya 28,4 mlrd, Italiya -27 mlrd. va Braziliya – 25,1 mlrd. sarf xarajat qilgan (1-jadval).

1-jadval

Turizmga eng ko'p xarajat qilgan mamlakatlar

№	Mamlakatlar	2015-yil mlrd.dollar	2016-yil mlrd.dollar	2017-yilga nisb, % da	2018-yilga nisb, % da
1	Xitoy	102,0	128,6	37,3	23,8
2	AQSh	83,5	86,2	6,7	3,3
3	Germaniya	81,3	85,9	2,2	2,3
4	Rossiya Federatsiyasi	42,8	53,5	36,5	28,9
5	Buyuk Britaniya	51,3	52,6	2,1	3,5
6	Fransiya	39,1	42,4	-5,8	4,9
7	Kanada	35,0	35,2	6,2	3,2
8	Avstraliya	28,0	28,4	2,1	8,8
9	Italiya	26,4	27,0	-0,3	-1,0
10	Braziliya	22,2	25,1	4,6	12,9

Manba: Tourism Highlights World Tourism Organization (UNWTO), Data as collected by WTO May 2018.

O'zbekistonga boshqa mamlakatlardan tashrif buyurgan sayyohlarning mamlakatdagi o'rtacha xarajati bo'yicha 2018 yildagi holat quyidagicha:

Qozog'iston - 158,3 dollar; Qirg'iziston - 99,3 dollar; Tojikiston - 60,4 dollar; Turkmaniston - 104,6 dollar; Boshqa MDH mamlakatlari - 635,6 dollar; Uzoq xorijiy mamlakatlar - 709,4 dollar.

Hozirgi kunda turizm sanoati Jahon Yalpi Ichki mahsulotining bevosita 3,8 foizini, bilvosita 10 foizini bermoqda. Dunyoning 80 ta mamlakatida turizm eksportning yetakchi besh manbalaridan biri bo'lib hisoblanadi. Turizmga jahon eksportining 8 foizi to'g'ri kelmoqda.

Turistlarning bunday miqyoslari haqidagi ma'lumot faqatgina yengil hisoblangan bo'lib ular asosiy ma'lumotlardir. Turizmning ko'p tomonligi, uning ishlab chiqarish va sotuv sohalari bilan turli xil aloqalari hamda bir qator mavsumiylik va norasmiy biznes turizmni uning bozor ulushini soliqqa tortish uchun aniqlashda va soliqqa tortishda qiyinchiliklar tug'diradi.

Turizmdan eng ko'p daromad oladigan mamlakatlar tahliliga ko'ra, oxirigi yillarda Amerika Qo'shma Shtatlari bu sohada yetakchilik qilmoqda, ularning daromadi 139,6 milliard dollarni tashkil etgan. Bu esa o'z navbatida AQShda turistik sayohatlar biroz qimmatli bilan tavsiflanadi. Keyingi o'rinlarda Ispaniya va Fransiya mamlakati bo'lib, bularning daromadi 60,4 va 56,1 mlrd. Dollarni tashkil etgan. Ushbu tahlilning eng qiziq tomoni, Xitoy mamlakati bilan bog'liqdir.

Turizmning rivojlanish omillari deganda ob'ektiv ta'sir etuvchi turli qonunlar natijasida yuzaga keluvchi turizmni rivojlantirish sharoitlari tushuniladi. Turizmning rivojlanishiga ta'sir etish tavsifiga binoan barcha omillar uch guruhga bo'linadi: ekstensiv (miqdoriy), intensiv (sifatiy) va cheklovchi (salbiy) rivojlanish omillari.

Turistik faoliyatning ekstensiv omillariga quyidagilar kiradi:

- turistik firmalar va ularda ishlovchi xodimlar soning o'sishi;
- turizmga jalb etiluvchi moddiy resurslar, joylashtirish, tashish vositalari, ovqatlantirish korxonlari miqdorining turistlarga xizmat ko'rsatish texnologiyalarni kuchli takomillashtirmagan holda oshirilishi.

Turizmni rivojlantirishning intensiv omillari o'z ichiga sifatiy yangilanishning quyidagi omillarini oladi:

- xodimlar malakasini oshirish;
- ilmiy-texnik taraqqiyotning yutuqlarini-xizmat sifatini oshirish, turistik resurslardan oqilona foydalanish, turizmda informatsion-texnik vositalardan foydalanishni tadbiq etish.

Turizmni rivojlantirishni cheklovchi salbiy omillarga quyidagilar kiradi: siyosiy moliyaviy beqarorlik, kriminogen vaziyat, tabiiy ofatlar.

O'zbekistonda turizm iqtisodiyotini rivojlantirishdan asosiy maqsad jamiyat ehtiyojlarini qondirish, xizmat ko'rsatish sifati va hajmini kengaytirgan holda dunyo standartlari darajasida bozor iqtisodiyoti modelining turizmga kirib kelishini ta'minlashdir. Jamiyat ehtiyoji turistlar talabini ichki va tashqi turizm xizmatlarini qondirish, shu bilan xizmat importi va eksportiga bo'lgan xalqaro talabni o'rganish, aholining ekskursiya xizmatlariga bo'lgan ehtiyojini qondirishga bog'liq.

1. Turli mamlakatlarda klaster tuzilmalarining amalda qo'llanilishi shundan dalolat beradiki, moliya-kredit tashkilotlari, tijorat banklari, investitsiya kompaniyalari va turli fondlar klaster jarayonlarining faol ishtirokchilari sifatida maydonga chiqishlari mumkin. Bu bizga investitsiya loyihalarini amalga oshirish, qo'shimcha moddiy va resurs bazasini jalb qilish imkonini beradi, bu holat bugungi kunda turistik xizmatlar bozor inqirozni boshidan kechirayotgan bir paytda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

2. Turistik yo'nalishlarni rivojlantirish uchun asosiy omil bu kadrlarning bilimi va tajriba salohiyatidir. Hozirda respublikada turistik yo'nalishlarni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar mavjud bo'lsa ham juda kam yo'nalishlar ishlab chiqilgan. Bu yo'nalishlar faqat "Buyuk Ipak Yo'lida" joylashgan shaharlarga qaratilgan. Lekin respublikada turistlarning ko'rish va dam olishlari uchun tarixiy va xushmanzara joylar ko'p. Faqat ularni yuqori darajada

tanishtirish, yangi yo'nalishlar tizimi va turistlarni o'sha joylarga joylashtirish yo'llari ishlab chiqilishi kerak.

3. Sayyohlikda restoran xo'jaligi muammolari eng kam o'rganilgan yo'nalish bo'lib, bu sohaning qaysi turlariga e'tibor berish, sayohat qiluvchilarning xoxish-irodasini bilish, ularni eng foydali va qulay oshxonalariga chorlash, ularning xavfsizligini ta'minlash, ularning talabini qondirish va yana boshqa ko'plab turlarini bilish servis xizmati funksiyasiga kiradi.

Xulosa va takliflar.

O'zbekistonda restoran xo'jaligini o'rganish, undan jahon bozorlari uchun yo'l topish juda muhimdir. Tarixiy shaharlarimiz Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent va boshqa ko'plab tarixiy obidalarimiz xalqaro sayyohlarni bu yerlarga jalb yetadi va shu orqali ularni ovqatlantirish va servis xizmatini rivojlantirish keng imkoniyatlarni yuzaga keltiradi.

Takliflar. Tadqiqot natijalari asosida qishloq xo'jaligida xizmat ko'rsatish sohasini samarali rivojlantirish uchun quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Respublika turizmida resurslarning samarali ishlatilishi uchun kichik va hususiy tadbirkorlikni keng avj oldirish.

2. Zamonaviy turistik komplekslar bunyod etish, ularni xalqaro andozalarga moslash, xorijiy sarmoyalarni jalb qilish.

3. Yirik xorijiy turfirmalar bilan barcha turistik xizmat ko'rsatishning yangi shakllarini tashkil qilish.

4. Jahon turistlarining talabini o'rgangan xolda milliy taomlar tayyorlashni yo'lga qo'yish.

5. O'zbekistonda turizm infratuzilmasining rivojlanishida milliy xususiyat, milliy an'analarni e'tiborga olgan holda reklama va targ'ibot ishlarini yaxshi yo'lga qo'yish va h.k.

6. Turizm rivojlanishini marketing xizmatlarini yaxshi yo'lga qo'yish. Buning uchun chet el turistik bozorlarini o'rganish u yerlarga milliy turistik mahsulotlarni sotish uchun harakat qilish kerak.

7. Turizm investitsion loyihalarni takomillashtirishda asosan turistik korxonalar va xususiy turistik firmalarning ham alohida o'rni bo'lishi kerak.

Adabiyotlar / Литература / Reference:

Brassington F., Pettitt S. (2006) *Principles of Marketing*. – Harlow: Pearson Education, -623 p.

FIAS (2008) *Financial and Insurance Advisory Services, the International Finance Corporation (IFC), the Multilateral Investment Guarantee Agency (MIGA) and the World Bank (IBRD)*. «Special economic zones performance, lessons learned, and implications for zone development». April.

Sharpley R., Harrison D. (2004) *Tourism and Development: Concepts and Issues*. – Clevedon: Channel View Publications, – 370 p.

Valiev B.B. (2017) *Iqtisodiy o'sishni ta'minlashda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalardan samarali foydalanishning metodologik asoslari. Monografiya*. – T.: -222 b.

Wright L.T., Crimp M. (2000) *The Marketing Research Process*. – Harlow: Pearson Education, – 480 p.

Алиева М.Т. (2010) *Туризм асослари*. – Т.: Ўқитувчи, – 320 б.

Буржаков М.Б. (2008) *Введение в туризм*. – СПб.: Герда, – 576 с.

Гуляев В.Г. (2003) *Организация туристской деятельности*. – М.: Нолидж, – 312 с.

Ильина Е.Н. (2000) *Туроперейтинг: организация деятельности*. – М.: Финансы и статистика, – 256 с.

Ирматов М.М. (2014) *Халқаро туризм*. – Т.: Фан, – 256 б.

Кабушкин Н.И. (2004) *Менеджмент туризма*. – М.: Новое знание, – 432 с.

Козырев В.М., Янкевич В.С. (2001) *Туризм как вид деятельности*. – М.: Финансы и статистика, – 288 с.

Мирзаев Р.А., Норчаев А.Н. (2016) *Туризмни ривожлантириш стратегияси*. – Т.: Иқтисодиёт, – 300 б.

Салимова Б.Х. (2012) *Туризмни бошқариш*. – Т.: Иқтисодиёт, – 280 б.